

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI



Ro'yxatga olindi

BD-5112100-3.13

2016-yil 08-08

**RAQAMLI DASTUR BILAN BOSHQARILADIGAN  
STANOKLAR**

**FAN DASTURI**

Bilim sohasi:

100 000 – gumanitar

Ta'lim sohasi:

110000 – pedagogika

Ta'lim yo'nalishi:

5112100 – mehnat ta'limi

Toshkent – 2016

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2016-yil "35" -sonli buyrug'ining 2- ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslibiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashining 2016-yil "6" -sonli bayonnomasi hilan ma'qullangan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi va turdosh oliy ta'lim muassasalari bilan kelishildi.

**Tuzuvchi:**

- D.U.Ergashev** – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida dotsenti, pedagogika, fanlari, nomzodi.
- N.I.Tursunbayev** – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida katta o'qituvchisi
- G'.Abduqodirov** – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida katta o'qituvchisi

**Taqrizchilar:**

- N.M.Boymatov** - Guliston davlat universiteti "Dastlabki qayta ishlash texnologiyasi" kafedrasи o'qituvchisi
- Z.D.Parmanova** - Sergeli tumani 304 – umumta'lim mакtabimинг mehnat ta'limi o'qituvchisi

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'quv-uslibiy kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2016-yil "14" -sonli bayonnomasi).

## KIRISH

Raqam dastur bilan boshqariladigan stanoklar kursining maqsadi materiallarni kesish jarayonining fizikaviy asoslarini, asbobsozlik materiallari, kesuvchi asboblarning ishlatalishi va ularni loyixalash, ishlab chiqarishda keng tarqalgan stanoklarning tuzilishi, ularda bajariladigan ishlarga oid masalalarni o'rganishdir. Shuningdek: kesish jarayoni to'g'risida umumiylumot, keskichning kesuvchi qismining elementlari, geometriyasi, mashina va donalik vaqt. Kesib ishlashning fizik hodisalari: o'simta, qirindining kirishuvi, kesish jarayonida hosil bo'luvchlissiklik hodisalari, kuchlar, kesish tezligi, yo'nilgan sirtning sifati, metallmas materiallarni kesib ishlash, tokarlik, randalash, parmalash, frezerlash, jilvirlovchi, yog'ochni qayta ishlovchi stanoklar, hamda materiallarni fizik-kimyoviy ishlov berish haqida talabalarga bilim berishdir.

### Fanning maqsadi va vazifalari

Ushbu fanning maqsadi – materiallarni kesib ishlash, stanoklar va asboblarni kursining maqsadi materiallarni kesish jarayonining fizikaviy asoslarini, asbobsozlik materiallari, kesuvchi asboblarning ishlatalishi va ularni loyixalash, ishlab chiqarishda keng tarqalgan stanoklarning tuzilishi, ularda bajariladigan ishlarga oid masalalarni o'rganishdir.

Ushbu fanning vazifasi – materiallarni kesib ishlashning nazariy asoslari va zamonaviy metalli kesuvchi stanoklarning asosiy tiplarini boshqarish, soziash, kesuvchilasblarni charxlash, ratsional kesish rsjimlarini tanlash va boshqalarni o'rgatadi.

### Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

- metallar va metallmas materiallarni kesib ishlash va uning hozirgi zamon ishlab chiqarishdagi ahamiyati; kesish jarayoni to'g'risida umumiylumot; gazlamalarga ishlov berish **to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi kerak;**
- keskichning kesuv qismi elementlari va geometrik o'chovlari; donalash va mashina vaqt; metallarni kesib ishlashning fizik hodisalari. o'simta, uning kesish jarayoniga ta'siri; qirindining kirishuvi; metallarni kesib ishlashda issiqlik hodisalari; kesuvchi asboblarning yejilishi; materiallarni kesib ishiashdagi qarshiliklar to'g'risida **bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olishi kerak;**
- yo'nalishda kesish kuchini aniqlash metodlari; kesish tezligi; kesib ishlashda yo'nilgan sirtning sifati; nometal materiallarni kesib ishlashning asoslari; stanoklar va kesuvchi asboblarni; metall kesuvchilasblarni va ularning kinematikasi; tokarlik, parmalash, randalash, zarb bilan o'yish, cho'zish, sillig'lash stanoklarida ishlov berish. Tishli g'ildirakka ishlov berish metodlari; gazlamalarga ishlov mashinalari; agregat stanoklar, raqamlı programm boshqarish stanoklari, umumiylumot va avtomatik liniyalar, materiallarga fizik va kimyoviy usullarda ishlov berish bo'yicha **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.**

## **Fanning o‘quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatidan uzviy ketma-ketligi**

Fanni o‘rganish “Oliy matematika asoslari”, “Fizika”, “Elektrotexnika, elektronika va elektronika”, “Mexanizaziyalash, avtomatlashtirish va robototexnika asoslari”, “Mehnat ta’limi praktikumi” kabi fanlari boyicha olingan fundamental bilimlariga asoslangan.

## **Fanning ta’limdagi o‘rni**

Mazkur fanni o‘qitishda umumiy o‘rta ta’lim maktablari mehnat ta’limi darslari bilan bevosita aloqada bo‘lib, materiallarning turlari, ularning xossalari, ta’biy qazilmalar, materiallarning konstruktsiyasi, yurtimizda ishlab chiqarilayotgan bir necha turdag'i materiallarning turiari xaqida o‘quvchilarga bilim berilsa dastur mazmuniga mos keladi.

## **Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

Talabalarning “Raqam dastur bilan boshqariladigan stanoklar” fanini o‘zlashtirishlarj uchun o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalamish, yangi axborot-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish mubim axamiyatga egadir. Fanni o‘qitishda plakatlar, chizmalar, namunalar, yo‘riqnomalar texnologik xaritalar, ko‘rgazmali texnik vositalardan «Kompyuter texnikasi, kinofilm, videofilm, diafilm, slayd va elektron versiyalardan» yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish, bilim ko‘nikma va malakalarni hosil qilish ko‘zda tutiladi..

## **Asosly qism**

### **Fanning nazariy (lektsiya) mashhg‘ulotlari mazmuni**

Fanining maqsadi va vazifalari. Materiallarning zamonaviy ishlab chiqarish korxonalaridagi roli. Mamlakatimiz olimlari va ishlab chiqarish ilg‘orlarining kesib ishlash, stanoklar va asboblar to‘g‘risidagi ta’limotni rivojlantirishdagi roli. Stanoksozlik va asbobsozlik korxonalarining texnikaviy taraqqiyot yo‘nalishi va vazifasi. Uning boshqa bo‘limlar bilan o‘zaro bog‘liqligi.

Asbobsozlik materiallari, ularga qoyilaligan talablar, ishlatilishi. Uglerodli asbobsozlik va legirlangan tezkesar pulatlar, metall-keramik va mineral-keramik qotishmalar. Kesish jarayoni to‘g‘risida umumiy tushunchalar. Kesib ishlash turlari: yo‘nish, parmalash, randalash, frezalash, jilvirlash. Kesish rejimlari elementlari: kesish tezligi, kesish chuqurligi, surish kattaligi, kirindining kattaligi va eni. Keskichning kesuvchi qismi elementlari va geometrik parametrlari. Kesish jarayonidagi burchak qiymatlariga keskich cho‘qqisini zagatovka o‘qiga nisbatan joylashtirishning ta’siri. Ishlab chiqarish unumdarligi to‘g‘risida tushuncha. Detall ishlab chiqarish uchun sarflanadigan vaqt.

Materiallarni kesib ishlashdagi fizikaviy hodisalar. Kesish jarayonining moxiyati. Qirindl hosil bo‘lish jarayoni. Qirindi turlari. O‘simta va uning kesish

jarayoniga ta'siri. Qirindining kirishuvi. Materiallarni kesib ishlash jarayonidagi issiqlik xodisalari ta'sir etuvchi omillar. Kesish zonasidagi issiqlikni o'chash metodlari. Kesuvchi asbobning eyilishi. Eyilish mezoni, keskichning optimal xolatini tanlash. Materiallarning kesishga qarshiligi. Keskichga ta'sir etuvchi kuchlar. Kesishga qarshilik ko'rsatuvchi kuchning teng ta'sir etuvchilar. Kuchlarning asbob, stanok va zagatovkaga ta'siri. Har xil faktorlarning kesish kuchiga ta'siri: kesuvchi asbob geometriyasi, kesish tezligi, kesish chuqurligi, surish kattaligi, kesish ishlanayotgan materiallarning hossasi, sovitish va moylash suyuqliklari va xokazo.

Yo'nish, parmalash, frezalashda kesish kuchini aniqlash metodlari. Kesish kuchlarini o'chashda ishlataladigan qurilmalar: universal, dinamometr UMD, mexanik dinamometr DK - 1.

Kesish kuchini xisoblash formalari. Kesish va stanok quvvati.

Kesish tezligi. Kesish tezligi va uning axamiyati. Kesish tezligiga ta'sir etuvchi omillar: kesuvchi asbobning turgunligi, kesuvchi asbob geometriyasi, ishlov berilayotgan va kesuvchi asbob materiallarning xossalari, kesish chuqurligi va surish kattaligi, sovitish — moylash suyuqliklari. Yo'nishda kesish tezligini hisoblash formulasi.

Materiallarning kesib ishlanuvchanligi. Po'lat, choyan, rangli metall qotishmalar, plastmassalar va yangi konstruktsion materiallar ishlanuvchanligi. Materiallar ishlanuvchanligini yaxshilash usullari. Ishlab chiqarish unumdoorligining kesish rejimlariga bog'liqligi.

Kesib ishlanilgan yuza sifati. Ishlov berilgan yuza sifati to'grisida tushunchalar va uning tavsifi. Turli omillarning ishlov berilgan yuza sifatiga ta'siri: kesuvchi asbob geometriyasi, kesish rejimlari, ishlov berilayotgan materiallarni sovitish — moylash suyuqliklari.

Kesib ishlash jarayonida titrash va uning ishlanayotgan yuza sifatiga ta'siri. Ishlanilgan yuza sifatining, detallar ishlatalish xarakteristikasiga ta'siri. Metalmas materiallarni kesib ishlashning ba'zi bir masalalari. Yog'och materiallarni kesib ishlash. Material tolasiga parallel va ko'ndalang, tangentsial yo'unalishda kesib ishlash. Kesish va kesishga qarshilik ko'rsatuvchi solishtirma kuch. Yog'ochni. kesib ishlashning asosiy metodlari: arralash, randalash, frezerlash, yo'nish. Kesuvchi asbobning geometrik parametrlari.

Konstruktsion plastmassalarni kesib ishlashning moxiyati: parmalash, frezerlash va yo'nish. Tavsiya etiladigan kesish rejimlari. Stanoklar va kesuvchi asboblar. Metall kesuvchi stanoklarning asosiy turlari va ularning markalari. Stanoklar to'g'risida umumi y tushunchalar. Stanoklarning ixtisoslashtirilishi, aniqligi va o'lchamlariga qarab turlanishi. Stanokdagi asosiy xarakatlarning turlari. Sxemadagi shartli belgilar. Aylanish sonining pogonali sozlashi qurilmasi. Shesternyali tezlik va surish kutilari, elementlari, mexanizmlari. Reverslash mexanizmi shpindelning aylanish soni va surish kattaligi, qatorlari tug'risida tushunchalar.

Tokarlik stanoklar. Tokarlik stanoklarning turlari, tokarlik, zinkerlash stanoklari, revolver, karusel, tokarlik avtomat va yarim avtomat stanoklar. Tokarlik stanoklarida bajariladigan ishlar. Turlicha ishlov berish jarayonlarida ishlatuvchi

keskichlarning turlari va boshqa asboblar. Keskich konstruktsiyalarining moxiyati va ishlatalish joylari. Keskichlarning mustaxkamligini o'tkirligini xisoblash.

Parmalovchl va teshik kengaytiruvchi stanoklar. Parmalash, teshik kengaytiruvchi jarayonining moshiyati. Parma turlari va konstruktsiyasi. Spiral parmaning konstruktsiyasi, geometrik parametrlari. Parmalarni charxlash. Zenkerning turlari, geometrik parametrlar. Turli turdag'i zenkerlarning qo'llanishi. Razvertkalar turlari va geometrik parametrlari, ularni charxlash va pardozlash. Kombinatsiyalashtirilgan asboblar. Parmalash stanoklarning turlari va ularda bajariladigan ishlar. Ishlatiladigan asboblar va moslamalar.

Frezerlash stanoklarla ishlov berish. Frezerlash jarayonining moxiyati. Frezerlashda kesish rejimlarining elementlari. Frezalarning asosiy turlari: tsilindrik, barmoksimon, torets, diskimon shponkalarning joyini ishlovchi, modulli va chervyakli frezerlar va ularning konstruktiv xususiyatlari. Turli tipdag'i frezalarning parametrlari. O'tkir uchli va kengaytirilgan tishli frezalar. Frezalarni charxlash. 6R82G markali gorizontal — frezer stanogining kinematikasi. Frezerlash stanoklari kinematik sxemasi. Frezerlash stanoklarida qo'llaniladigan moslamalar. Taqsimlash kallaklarning tuzilishi va kinematik sxemasi. Taqsimlash kallagidan foydalanib bajariladigan ishlar, frezerlashda kesish kuchi va quvvati.

Randalash va protyajkalash stanoklarila ishlov berish. Randalash va oyish jarayonlari. Randalashda kesish rejimlari. Randalash va oyishda ishlataladigan keskichlar va ularning konstruktiv xususiyatlari. Stanok turlari: boylama, ko'ndalang randalovchi, oyuvchi stanoklar, ularning tuzilishi va ishlatalishi. Randalash va oyish stanoklarida bajariladigan ishlar. Protyajkalash jarayonining mohiyati. Protyajka turlari, konstruktsiyasi va kesuvchi qismi geometriyasi. Protyajkalar konstruktsiyasi. Protyajkalash stanoklarining turlari. Kesish rejimlari. Protyajkalarni charxlash va pardozlash.

Jilvirlash va pardozlash. Jilvirlash jarayoni. Jilvirlash turlari. Abraziv asboblar, ularning formalari va qo'llanilishi. Turli ishlar uchun jilvirlash toshlarining turg'unligi va eyilishi. Jilvir toshlarini to'g'rilash. Jilvir toshlarning markalari. Jilvirlash stanoklarining turlari: yumaloq sirtlarni jilvirlovchi, markazsiz jilvirlash, ichki yuzalarni jilvirlash va tekis yuzalarni jilvirlash stanoklari. Turli turdag'i jilvirlash stanoklarida bajariladigan ishlar. Jilvirlashda kesish rejimlari quvvati. Pardozlash, xoninglash va supperfmeshlash jarayonida kesib ishlashning moxiyati. Stanoklarning konstruktiv xususiyatlari va ularda bajariladigan ishlarning turlari.

Yog'ochni qayta ishlovchi stanoklarla materiallarga ishlov berish. Yog'och materiallariga ishlov berish stanoklari tiplari, tuzilishi va ishlatalishi. Doiraviy va lentali, arrali stanoklar, lobzikli stanoklar, tokarlik stanoklar, frezalash stanoklari, randalovchi stanoklar. Yog'och materiallarga ishlov beruvchi, kesuvchi asbob va moslamalar. Materiallarga fizik - kimyoviy usullar bilan ishlov berish. Elektr impulsli, ultratovush, elektr — kimyoviy usullar bilan ishlov berish. Bu usullarning qo'llanilishi. Ishlov berish jarayonlarining mohiyati va kerakli uskunalar.

## **Laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish boyicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Laboratoriya mashg'ulotlarining tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Kesuvchi asboblar tayyorlash uchun qo'llaniladigan asbobsozlik materiallarini o'rghanish.
2. Tokarlik kesuvchilarining konstruktsiyasi va geometrik parametrlarini o'rghanish.
3. Parmalarning konstruktsiyasi va geometrik parametrlarini o'rghanish.
4. Frezerlarning konstruktsiyasi va geometrik parametrlarini o'rghanish.
5. Qirindining kirishuvini o'lhash va uning miqdoriga ta'sir etuvchi faktorlarni o'rghanish.
6. Kesish jarayonida xosil bo'lgan issiqlikni o'lhash va issiqlik miqdoriga ta'sir etuvchi omillarni o'rghanish.
7. Kesuvchi asboblarning eyilishi va eyilishga ta'sir etuvchi omillarni o'rghanish.
8. Kesish jarayonida xosil bo'luvchi kuchlar va kuchlar miqdoriga ta'sir etuvchi faktorlarni o'rghanish.
9. Kesish jarayonida xosil bo'lgan yuza tozaligini o'lhash va kesish rejimlarining yuza tozaligiga ta'siri o'rghanish.
10. Tokarlik stanogining kinematik sxemasini o'rghanish.
11. Frezerlash stanoklarida tishli g'ildaraklarning tishlarini ochishni o'rghanish.
12. Stanoklarni aniqligini tekshirishni o'rghanish.

Laboratoriya mashg'ulotlarida talabalar kesuvchi asboblar tayyorlash uchun qo'llaniladigan asbobsozlik materiallarini, tokarlik kesuvchilarining konstruktsiyasi va geometrik parametrlarini, qirindining kirishuvini o'lhash va uning miqdoriga ta'sir etuvchi faktorlarni, kesish jarayonida xosil bo'lgan issiqlikni o'lhash va issiqlik miqdoriga ta'sir etuvchi omillarni, kesuvchi asboblarning eyilishi va eyillshga ta'sir etuvchi omillarni, kesish jarayonida xosil bo'luvchi kuchlar va kuchlar miqdoriga ta'sir etuvchi faktorlarni, kesish jarayonida xosil bo'lgan yuza tozaligini o'lhash va kesish rejimlarining yuza tozaligiga ta'siri, tokarlik stanogining kinematik sxemasini, frezerlash stanoklarida tishli g'ildaraklarning tishlarini ochishni, stanoklarni aniqligini tekshirishni o'rghanadilar.

## **Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Talaba mustaqil ta'limni tayyorlashda tuyannan fanning xususiyatlarini xisobga olgan xolda quyidagi shakklardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar boyicha fan boblari va mavzularini o'rghanish.
- tarqatma materiallar boyicha ma'ruzalar qismlarini o'zlashtirish.
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash.
- maxsus adabiyotlar boyicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash.
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rghanish.
- talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rghanish.
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari.
- masofaviy (distantsion) ta'lim.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'limning mavzulari:

1. Kesish jarayonida kesilgan yuzalarning puxtalanish.
2. Moylash-sovitish suyuqliklari va ularning kesish jarayoniga ta'siri.
3. Frezerlashda va parmalashda kesish kuchlari va kesish kuchini hisoblash formulalari.
4. Kesib ishlash jarayonida titrash va uning yuza tozaligiga ta'siri.
5. Zenker va razvertkalarning turlari va geometriyasi
6. Agregat va yarim avtomat stanoklar.

### Fan dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti Didaktik vositalar

**Didaktik vositalar:** metall kesish stanoklarining klassifikatsiya jadvali, kesuvchi asbob turlari, texnologik jarayon kartalari, tarqatma materiallar.

**Jihozlar va uskunalar, moslamalar:** elektron doska-Hitachi, LCD-monitor, elektron ko'rsatgich (ukazka).

**Video-audio uskunalar:** video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.

**Kompyuter va multimediali vositalar:** kompyuter, Dell tipidagi proektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko'z (glazok).

### Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati Asosiy adabiyotlar

1. А.С.Искандаров. «Материалларни кесиб ишлаш, кесувчи асбоблар ва станоклар.-Т.: “Фан ва технология” 2004.
2. К.Б.Usmonov. “Metall kesish asoslari”.-Т.: “O'qituvchi” 2004.

### Qo'shimcha adabiyot

1. В.А.Мирбобоев. “Конструкцион материаллар та'lim resurslari

### Elektron ta'lim resurslari

1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
3. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
4. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)

Nizomiy nomli

TDPU

kutubxonasi